

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/28.02.2022.I.18.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

QULIYEV BEGIMQUL MELIKOVICH

MAISHIY XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING
TASHKILY-IQTISODIY MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of of dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD)
on economical sciences**

Quliyev Begimqul Melikovich

Maishiy xizmatlar sohasini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy
mexanizmini takomillashtirish 3

Кулиев Бегимкул Меликович

Совершенствование организационно-экономического механизма
развития сферы бытовых услуг 25

Kuliyev Begimkul Melikovich

Improvement of organizational and economic mechanism
for the development of the sphere of household services 47

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 51

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/28.02.2022.I.18.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

QULIYEV BEGIMQUL MELIKOVICH

**MAISHIY XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING
TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Iqt 2741 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Samarqand iqtisodiyot va servis institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.sies.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Sultonov Shodiyor Abdusalilovich**
iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar: **Pardayev Mamayunus Qarshibayevich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharifov Shuxrat Saidaxmedovich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot: **Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/28.02.2021.18.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "09" 11 kuni soat 09⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 9-uy. Tel.: (99866) 233-19-84; faks: (998 66) 231-12-53; e-mail: sies_info@edu.uz.

Dissertatsiya ishi bilan Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (086 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 9-uy. Tel.: (99866) 233-19-84; faks: (998 66) 231-12-53; e-mail: sies_info@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "28" 10 kuni tarqatildi.
(2024-yil "28" 10 dagi № 16 raqamli reyestr bayonnomasi).



M.E.Po'latov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

Sh.O.Kuvandikov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.d., dotsent

M.M.Muxammedov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida maishiy xizmatlar sohasi o'zining iqtisodiy imkoniyatlari kengligi bilan bir qatorda ijtimoiy jihatdan, ayniqsa aholining turmush sifati darajasini oshirishdagi o'rniga ko'ra alohida ahamiyat kasb etib bormoqda. "Rivojlangan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulot tarkibida xizmat ko'rsatish sohasining ulushi 65-80 %ni, umumiy bandlikning 70,0 %dan ortig'i va to'g'ridan-to'g'ri investisiyalar hajmining 40,0 % xizmat ko'rsatish sohasiga to'g'ri kelmoqda"¹. Bugungi kunda sifatli xizmatlarga bo'lgan talabning ortib borishida maishiy xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning samarali tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini amaliy faoliyatga qo'llashga dolzarb muammolardan biri sifatida qaralmoqda.

Jahonda global o'zgarishlar sharoitida xizmatlar ko'rsatish sohasini samarali rivojlantirish va mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi o'rniga ko'ra olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlarda maishiy xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish (ishlab chiqish) yo'nalishidagi tadqiqotlarga ustuvor darajada qaralmoqda. Bu borada raqobat sharoitida sohani sifatli rivojlantirish mezonlari va tamoyillarini takomillashtirish, sohani strategik rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish, maishiy xizmat turlarini innovasion yondashuvga ko'ra kengaytirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, raqobatbardoshligini oshirish kabi mavzulardagi tadqiqotlarga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Yangi O'zbekistonni barpo etish sharoitida maishiy xizmat ko'rsatish sohasini barqaror rivojlantirish, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarini samaradorligini oshirish va intensivligini ta'minlash, zamonaviy maishiy xizmatlar turlarini kengaytirish asosida aholining maishiy xizmatlarga bo'lgan talabini to'liq qondirish kabi yo'nalishlarda keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. "Hududlarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish orqali keyingi 5 yilda xizmat ko'rsatish hajmini 3 baravarga oshirish hamda ushbu yo'nalishda jami 3,5 million yangi ish o'rinlarini yaratish, shahar va tumanlar markazlarida aholining kundalik ehtiyoji yuqori bo'lgan maishiy va kommunal xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha pullik santexnika, elektrik, uy jihozlarini ta'mirlash, keytering kabi xizmatlarni ko'rsatish punktlarini rivojlantirish"² kabi vazifalar belgilangan. Bu vazifalarni hal etishda maishiy xizmatlar raqobatbardoshligi va sifatini oshirish, xizmatlar jarayonlarini modernizatsiyalash, maishiy xizmatlar sohasi rivojlanishining ekonometrik modellarini ishlab chiqish, zamonaviy maishiy xizmatlarni tashkil etish va boshqarish kabi yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqotlarni chuqurlashtirish alohida ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2021-yil 30-sentyabrdagi PF-6318-son "Xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari, 2022-yil

¹ <http://stats.oecd.org/>

² Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2022-йил 28-январдаги «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тарақиёт стратегияси тўғрисида»ги ПФ-60-сон Фармони.

27-yanvardagi PQ-104-son “Xizmatlar sohasini qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 27-apreldagi 246-son “Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorini yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi qarori hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini amalga oshirishda ushbu dissertasion tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.“Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xizmatlar sohasi shaklla-nishi va rivojlanishining ilmiy-metodologik jihatlari xorijlik olimlar³, jumladan, J.M.Keyns, M.Ye.Porter, M.R.Kramer, Y.A.Shumpeter, T.Sakaiya, K.X.Haksever, B.R.Render, R.S.Rassel, R.G.Merdik va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

MDH mamlakatlarida maishiy xizmat ko‘rsatish sohasi rivojlanishining nazariy va uslubiy jihatlari V.M.Vlasova, N.A.Baturina, L.Pashkevich, D.R.Gibadullina, D.G.Demyanov, A.D.Domnin, Ye.Yu.Zayas M.S.Yegorixina, Ye.A.Shamin, O.Yu.Rudakova va boshqa olimlar⁴, tomonidan atroflicha o‘rganilgan.

Xizmat ko‘rsatish va servis sohasi, shuningdek, maishiy xizmatlar bozorining rivojlanish muammolari xususida respublikamiz iqtisodchi olimlaridan M.E.Po‘latov, M.Q.Pardayev, M.M.Muxammedov, Q.J.Mirzayev, D.X.Aslanova, B.A.Abdukarimov, A.M.Saidov, Sh.S.Sharifov, Sh.I. Artikova va boshqalar⁵ ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar.

³ Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег / Пер. с англ. проф. Н.Н.Любимова, под. ред. д.э.н., проф. Л.П.Куракова. – М.: МИЭМП, 2010; Porter М.Е., Kramer М.Р. Strategy and Society: The Link Between Competitive Advantage and Corporate Social Responsibility// Harvard Business Review. 2006, December, pp. 78-92; Шумпетер Й. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия / Й. Шумпетер: пер. с англ. В.С. Автономова. – М.: ЭКСМО, 2007. – 864 с.; Sakaiya, T. The Knowledge-Value Revolution or A History of the Future. Токуо-N.Y., 1991; Управление и организация в сфере услуг: теория и практика: Service Management and Operation – 2-е межд.изд./ К.Х.Хаксевер, Б.Р.Рендер, Р.С.Рассел, Р.Г.Мердик. – СПб, 2002. – 751 с.

⁴ Власова М.В., Батурина Н.А., Пашкевич Л.А. Мониторинг ассортимента и качества услуг на потребительском рынке//ОрелГИЭТ. 2020. № 1 (51). – С. 109-114; Гибадуллина Д.Р., «Развитие сфер бытового обслуживания в России» Проблемы социально-экономической устойчивости региона. 2020. С. 74-77; Демьянов Д.Г. Моделирование территориального развития сферы бытовых услуг // Вестник Пермского университета. Экономика. 2014. № 3; Домнин А.Д. Анализ подходов к оценке качества на предприятиях по оказанию бытовых услуг населению // Российский экономический интер.-журн. 2019. № 4.–С.50; Заяц Е.Ю. Совершенствование оценки качества обслуживания на предприятиях сферы бытовых услуг//2014;

⁵ Пардаев М.Қ., Исроилов Ж.И., Гаппаров А.Қ. Хизмат кўрсатиш соҳасида иқтисодий таҳлилни такомиллаштириш муаммолари. Рисола. Самарқанд. «Зарафшон», 2009. - 66 б.; Пўлатов М.Э., Мирзаев Қ.Ж., Султонов Ш.А., Шавқиев Э. Глобал иқтисодий ривожланиш (туризм иқтисодиёти).Ўқув қўлланма.Т.: 2018. – 296 б.; Мухаммедов М.М. и др. Экономика торговли. Самарқанд.1998.с.282; Асланова Д.Х. Трудоёмкость продукции общественного питания и резервы её снижения: автореферат диссертации. - Киев. 1992 – С. 20; Саидов А.М. Маиший хизмат кўрсатиш корхоналарида меҳнатни ташкил қилишни такомиллаштириш йўллари. И.ф.н. дисс. – Самарқанд. СамИСИ. 2011., Шарифов Ш.С. Маиший хизмат кўрсатиш соҳаларида ресурслар самарадорлигини ошириш: диссертация автореферати, Самарқанд -2020 й., Artikova Sh.I.Maishiy xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish : dissertatsiya avtoreferati , Samarqand -2022 y.

Yuqorida keltirilgan olimlar xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish, xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyatini tashkil etish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish, xizmatlar sifati va raqobatbardoshligini ta'minlashga oid ilmiy tadqiqotlarni olib borgan. Biroq ushbu tadqiqotlarda maishiy xizmatlar sohasi rivojlanishining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish, uning omillari va shart-sharoitlarini aniqlash kabi masalalar yetarli darajada o'rganilmagan. Shunga ko'ra, respublikamizda aholining maishiy xizmatlarga talabini to'liq qondirish, maishiy xizmatlar sohasi rivojlanishining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bilan bog'liq muammolarni tadqiq etish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Samarqand iqtisodiyot va servis institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Innovation iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlarini rivojlantirishning nazariy va amaliy muammolari" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi maishiy xizmatlar sohasini rivojlantirishni tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida maishiy xizmat ko'rsatishning xizmatlar sohasidagi o'rni va ahamiyatini ko'rsatib berish;

maishiy xizmatlar sohasini rivojlantirishning zaruriyati va institusional asoslarini yoritib berish;

maishiy xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarini faoliyatini rivojlantirish tamoyillarini ishlab chiqish;

maishiy xizmatlar sohasining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni ko'rsatib berish;

maishiy xizmatlar sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni ko'rsatkichlarini tasniflash;

maishiy xizmat ko'rsatishni xorijiy tajribalarini, modellarini va texnologiyalarini qo'llash yo'nalishlari;

maishiy xizmat ko'rsatishni investitsiya va innovatsiyalardan foydalanish mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari bo'yicha ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish ;

maishiy xizmatlar sohasini rivojlanishning prognozini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obekti bo'lib Samarqand viloyatida maishiy xizmat ko'rsatish sohasi faoliyati bilan shug'lanuvchi xo'jalik subyektlari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini maishiy xizmatlar sohasini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya tadqiqotida abstrakt-mantiqiy tahlil, induksiya va deduksiya, guruhlash, tizimli tahlil, regression tahlil, ekspert baholash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

maishiy xizmatlar sohasini rivojlantirish va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishning sarf-xarajatlar tarkibini optimallashtirish, xizmat ko'rsatish sifati, xizmatlar hajmi, sof foyda hajmini oshirish va sohaga investisiyalarni keng jalb etish kabi asosiy yo'nalishlari asoslangan;

maishiy xizmat ko'rsatishning ijtimoiy-iqtisodiy mazmunini raqamli iqtisodiyotga ko'ra aniqlashtirilgan holda sohani istiqbol rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari, jumladan alternativ energiyaning ustuvorligi asosida xarajatlarni optimallashtirish (13%), korxonalarni texnik-texnologik jihatdan yangilash, raqamli ish o'rinlari bo'yicha personal malakasini oshirish negizida takomillashtirilgan;

maishiy xizmat ko'rsatish sohalarini samarali rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarga ko'ra hududiy klaster modeli Samarqand viloyati kesimida faoliyatni sinergetik samaraga yo'naltirish, klaster ishtirokchisi sifatida bilvosita bozor infratuzilmasi tashkilotlarini jalb etish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning nafaqat ishlab chiqarish iqtisodiy balki ijtimoiy faoliyatini ham muvofiqlashtirishga ko'ra rivojlantirishning maqsadga muvofiqligi asoslangan;

Samarqand viloyatida sohada davlat-xususiy sherikchilikni e'tiborga olgan holda maishiy xizmat ko'rsatish sohasida yaratiladigan yalpi mahsulot hajmining 2024-2027 yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“maishiy xizmat ko'rsatish” tushunchasining iqtisodiy xususiyatlari aniqlashtirilgan;

maishiy xizmatlar sohasi rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar sohani samarali tashkil etishga imkon beradigan shartsharoitlarning yaratilishi va aholining maishiy xizmat turlariga bo'lgan talabini shakllantirish yo'nalishlari bo'yicha guruhlarga ajratilgan holda tasniflangan;

maishiy xizmat ko'rsatish korxonasi samaradorligi mezonini hudud iqtisodiy salohiyati, resurslar ta'minoti, faoliyat natijasida resurslarni o'zgartirish davrining davomiyligi va aholi ehtiyojlarni qondirish darajasi funksiyasi orqali aniqlash taklifi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlari, maishiy xizmat ko'rsatish sohasi subektlari hisobotlaridan olingani hamda tegishli xulosa va tavsiyalarining vakolatli tuzilmalar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati taklif va tavsiyalar maishiy xizmatlar sohasidagi xizmatlar sifati va raqobatbardoshligini oshirish, xizmat ko'rsatish jarayonini modernizasiyalash va innovasion tashkil etish, sohani boshqarishning uslubiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati taklif va tavsiyalar maishiy xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish, mehnat

unumdorligini oshirish, sohaga oid me'yoriy hujjatlarni tayyorlash, korxonalar faoliyati samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda hamda fan dasturlari va "Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti", "Menejment", "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik asoslari" kabi fanlarni o'qitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Maishiy xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

maishiy xizmatlar sohasini rivojlantirish va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishning sarf-xarajatlar tarkibini optimallashtirish, xizmat ko'rsatish sifati, xizmatlar hajmi, sof foyda hajmini oshirish va sohaga investisiyalarni keng jalb etish kabi asosiy yo'nalishlari bo'yicha taklif O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan "Maishiy xizmatlar sohasini rivojlantirishning hududiy dasturlari"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (Savdo-sanoat palatasining 2024-yil 26-martdagi 9/06-30-5258-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklif maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarini samarali boshqarish, ishlab chiqarishni rasional tashkil qilish, aholining xizmatlarga bo'lgan talabini to'laroq qondirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

maishiy xizmat ko'rsatishning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni raqamli iqtisodiyotga ko'ra aniqlashtirilgan holda sohani istiqbol rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari, jumladan alternativ energiyaning ustuvorligi asosida xarajatlarni optimallashtirish (13%), korxonalarini texnik-texnologik yangilash, raqamli ish o'rinlari bo'yicha personal malakasini oshirish negizida takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan "2030 yilgacha bo'lgan davrda maishiy xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (Savdo-sanoat palatasining 2024-yil 26-martdagi 9/06-30-5258-sonli ma'lumotnomasi). Taklif tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va yangi ish o'rinlarini yaratish va maishiy xizmatlar ko'rsatish sohasini diversifikatsiyalash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilgan;

maishiy xizmat ko'rsatish sohasini samarali rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarga ko'ra hududiy klaster modeli Samarqand viloyati kesimida faoliyatni sinergetik samaraga yo'naltirish, klaster ishtirokchisi sifatida bilvosita bozor infratuzilmasi tashkilotlarini jalb etish, xo'jalik yurituvchi subektlarning nafaqat ishlab chiqarish-iqtisodiy balki ijtimoiy faoliyatini ham muvofiqlashtirishga ko'ra rivojlantirish bo'yicha takliflar O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan viloyat maishiy xizmat ko'rsatish korxonalariga joriy qilingan (Savdo-sanoat palatasining 2024-yil 26-martdagi 9/06-30-5258-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklif ko'rsatilayotgan maishiy xizmatlarning samaradorligini oshirish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan maishiy xizmat korxonalarida xizmatlar samaradorlik ko'rsatkichini 1,4 %ga oshirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

Samarqand viloyatida sohada davlat-xususiy sherikchilikni e'tiborga olgan holda maishiy xizmat ko'rsatish sohasida yaratiladigan yalpi mahsulot hajmining 2024-2027-yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlaridan O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi "Hududlarda 2030-yilgacha bo'lgan davrda

maishiy xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning hududiy dasturilari" va "Hududlarda maishiy xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (Savdo-sanoat palatasining 2024-yil 26-martdagi 9/06-30-5258-sonli ma'lu-motnomasi). Ushbu taklif viloyatda maishiy xizmat ko'rsatishdan olinadigan daromadlar hajmini va korxonalar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar samaradorligini oshirishga muayyan darajada xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotasiyasi. Tadqiqot natijalari 15 ta, jumladan, respublika miqyosidagi 6 ta va 9 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyada muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish, shu jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola, jumladan, 6 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 138 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan. Ishning fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, erishilgan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashrlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "Maishiy xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishning nazariy masalalari" deb nomlangan birinchi bobida - raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida maishiy xizmat ko'rsatishning xizmatlar sohasidagi o'rnini va ahamiyati, maishiy xizmat ko'rsatish samaradorligini baholashning nazariy muammolari va O'zbekistonda maishiy xizmat ko'rsatish sohasini tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishning institutsional asoslari va xorijiy mamlakatlar tajribasi nazariy jihatdan tadqiq etilgan.

Tadqiqot ishida maishiy xizmat tushunchasining turli xil yondoshuvidagi mohiyati qiyosiy o'rganildi. Shunga ko'ra maishiy xizmat kategoriyasiga mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi - "Maishiy xizmat kishilarning maishiy ehtiyojlarini qondirish asosidagi iste'mol qiymatiga ega, aholi turmush darajasi va moddiy farovonligiga ta'sir etuvchi xizmat ko'rsatish faoliyatidir".


Maishiy xizmatlar sohasini rivojlantirish, uning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmi takomillashtirish shunga muvoviq sohani rivojlantirishning tarkibi aniqlashtirishni taqozo etadi. Shular asosida raqamli iqtisodiyot platformasini shakllantirishning maishiy xizmat ko'rsatishni texnik-iqtisodiy holatini optimallashtirish borasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, maishiy xizmatlar sohasining quyidagi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini taklif qilindi (1-rasm).



1-rasm. Maishiy xizmatlar sohasini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi⁶

Maishiy xizmatlar sohasini rivojlantirishning tashkiliy iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish asosida maishiy xizmatlar bozorida talab yuqori bo'lgan maishiy xizmat turlarini kengaytirish va innovatsion texnologiyalarni sohaga jalb etish maqsadida investitsion loyihalari bo'yicha taklifi ishlab chiqildi. (2-rasm).



2-rasm. Samarqand viloyatida maishiy xizmat ko'rsatish sohasini investitsion va innovation salohiyatni takomillashtirish mexanizmi⁷

⁶ Muallif ishlanmasi.

⁷ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Dissertatsiya ishining “**Maishiy xizmat ko‘rsatishning holati, klaster modeli va unga ta’sir etuvchi omillar tahlili**” deb nomlangan ikkinchi bobida Samarqand viloyatida maishiy xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanish holati va tendensiyalari klaster modeli hamda mazkur soha rivojlanishining ekonometrik tahlili amalga oshirilgan. Shuningdek, sohada maishiy xizmatlarni tashkil etish va boshqarish holati tahlil etilgan.

Xizmatlar bozorida keskin raqobatning kuchayishi raqobatbardosh servis korxonalarida zamonaviy xizmatlar strategiyasini ishlab chiqish, ularni ichki va xalqaro bozorlardagi o‘rnini topish hamda keng targ‘ib qilish asosida respublikamiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushini oshirish imkoniyatini yaratishi mumkin. Bugungi kunda mamlakatimizda maishiy xizmat ko‘rsatish faoliyati aholiga ushbu xizmatlarni ko‘rsatish qoidalari asosida tartibga solinadi. Maishiy xizmat ko‘rsatish iqtisodiyot majmuasining tarkibiy qismi hisoblanadi, takror ishlab chiqarish tizimida ishtirok etadi hamda faoliyatini umumiy iqtisodiy qonuniyatlar asosida tashkil qiladi. Maishiy xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat olib boruvchi korxonalarining asosiy salohiyati unda band bo‘lganlar bilan belgilanadi. Shunga ko‘ra, Samarqand viloyati bo‘yicha maishiy xizmat ko‘rsatish sohasining 2019-2023 yillardagi rivojlanish holati tahlil etildi (1-jadval).

1-jadval

Samarqand viloyatida 2019-2023 yillarda maishiy xizmat ko‘rsatish holati⁸

| Yillar | Maishiy xizmatlar (mlrd. so‘m) | O‘shish sur‘ati, % | Bandlar soni, ming kishi | O‘shish sur‘ati, % |
|--------|-----------------------------------|-----------------------|-----------------------------|-----------------------|
| 2019 | 1022,9 | 104,0 | 66,0 | 104,1 |
| 2020 | 1126,9 | 104,5 | 72,4 | 109,7 |
| 2021 | 1139,7 | 102,2 | 73,1 | 101,0 |
| 2022 | 1152,5 | 112,8 | 78,5 | 107,4 |
| 2023 | 1194,8 | 116,8 | 80,2 | 102,1 |

1-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, maishiy xizmatlar hajmi 2023-yilda yuqori o‘shish (116,8 %) sur‘atiga ega bo‘lgan. Sohada band xodim va ishchilar soni 2019-2023-yillar davomida 66,0 ming kishidan 80,2 ming kishiga oshgan. Aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish hajmining o‘shishiga Samarqand viloyatida bozor konyukturasidagi o‘zgarishlar va bevosita soha xizmatlariga bo‘lgan iste’molchilarning talab hajmini oshganligi bilan belgilanadi. Band aholi sonini oshib borishiga maishiy xizmat sub`ektlarini to‘lov qobiliyatini barqarorlashganigi bilan tushuntirilishi mumkin.

Samarqand viloyatida 2019-2023 yillar davomida jami xizmatlar tarkibida eng katta ulush savdo va ovqatlanish xizmatlarning hissasiga to‘g‘ri kelib, bu ko‘rsatkich 2019-yilda 30,5 %ni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda ushbu ko‘rsatkich 28,3 %ni tashkil etgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2,3 %ga kamaygan. Shuningdek, 2019-2023 yillarda jami xizmatlar tarkibida moliyaviy xizmatlar (+5,8 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (+1,0 %), ta’lim xizmatlari (+0,9 %), sog‘liqni saqlash xizmatlari (+0,6 %), me’morchilik sohasidagi xizmatlar (+0,6 %) salmog‘i

⁸ Samarqand viloyati Davlat statistika Bosh boshqarmasi ma’lumotlari.

bo'yicha o'sish kuzatilgan. 2019-2023 yillar mobaynida viloyatda xizmat ko'rsatish sohasi tarkibida transport xizmatlari (logistika xizmatlarini qo'shgan holda) (-4,0 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (-1,5 %), ijara va prokat xizmatlari (-0,7 %), savdo xizmatlari (-2,2 %), ko'chmas mulk bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar (-0,3 %), kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (-0,1 %), boshqa turdagi xizmatlar (-0,3 %) kamayish borgan. Xizmatlar sohasida ustuvor ahamiyatga ega tarmoqlar transport xizmatlari (23,5 %) va savdo xizmatlari (28,3 %) bo'lib, jami ko'rsatilgan xizmatlar hajmining yarmidan ortig'i aynan ushbu tarmoqlar ulushiga to'g'ri kelmoqda. Tahlil qilinayotgan yillarda shaxsiy xizmatlar hajmi o'zgarishsiz qolgan.

Maishiy xizmat faoliyati iqtisodiy jihatdan faol faoliyat turi bo'lib, bozor iqtisodiyotida xilma xil maishiy xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanadi. Bu faoliyat maishiy xizmat ko'rsatish sohasining subyektlari bo'lgan xizmat ko'rsatishning ixtisoslashtirilgan tuzilmalari orqali amalga oshiriladi. Faoliyat ko'rsatuvchi subyektlar ijtimoiy ehtiyojlarning mazmuni va miqyosini baholash yordamida barcha xohlovchilarga o'z xizmatlarini taklif etadi va ularning talabini qondirishga harakat qiladi. Shundan kelib chiqib, maishiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish darajasi o'rganildi. Bunda Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarini soni ularning faoliyat turi kesimida o'rganildi (2-jadval).


2-jadval

Samarqand viloyatida 2019-2023 yillarda faoliyat yuritgan maishiy-xizmat ko'rsatish korxonalarini soni ⁹ (birlik hisobida)

| № | Ko'rsatkichlar | 2019 y. | 2020 y. | 2021 y. | 2022 y. | 2023 y. | 2019-2023 yillarda o'sish, % |
|---|---|---------|---------|---------|---------|---------|------------------------------|
| 1 | Maishiy xizmat ko'rsatish shaxobchalari turlari, shundan: - kiyish tikish ustaxonalari va atelelar | 65 | 66 | 69 | 75 | 79 | 121,5 |
| 2 | Poyabzal ta'mirlash ustaxonalari va yakka tartibda tikish | 61 | 63 | 69 | 73 | 75 | 122,9 |
| 3 | Sartaroshxonalar va go'zallik salonlari | 85 | 90 | 101 | 113 | 117 | 137,6 |
| 4 | Kiyimlarni kimyoviy tozalash | 8 | 9 | 11 | 13 | 14 | 175,1 |
| 5 | Foto salonlar | 20 | 22 | 21 | 25 | 26 | 133,0 |
| 6 | Maishiy texnika asboblarni ta'mirlash ustaxonalari | 49 | 52 | 57 | 60 | 63 | 128,1 |
| 7 | Ijara xizmati | 15 | 17 | 18 | 22 | 26 | 173,5 |

Tahliliy ma'lumotlariga nazar solsak, Samarqand viloyatida jami ko'rsatilgan maishiy xizmat ko'rsatish shaxobchalari turlaridan kiyish-tikish ustaxonalari va atelelar soni 2019-2023 yillarda 65 tadan 79 taga ko'paygan. Mazkur yillarda poyabzal ta'mirlash ustaxonalari va yakka tartibda tikish 121,7%ga, sartaroshxonalar va go'zallik salonlari soni 141,2%ga, kiyimlarni kimyoviy tozalash 185,7%ga, fotosalonlar 138,9%ga, maishiy texnika asboblarni ta'mirlash ustaxonalari 130,4%ga, ijara xizmatlari ko'rsatuvchilar soni 157,1 %ga o'sgan (2-jadval).

⁹ Samarqand viloyati Davlat statistika Bosh boshqarmasi ma'lumotlari.



3-rasm. Samarqand viloyatida maishiy xizmat ko'rsatuvchi hududiy klaster tarkibiy tuzilmasi ¹⁰

3-rasmda keltirilgan maishiy xizmat ko'rsatish sohasining hududiy klasteri tarkibiy tuzilmasi, uning shakllantirish talablariga ham, geografik muvofiqlik ko'rsatkichiga ham javob beradigan tuzilmalarning o'zaro hamkorligini yaratishga qaratilgan. Uning afzalligi shundaki, iste'molchilarning maishiy xizmatlar bozorida shakllanadigan talabini optimal qayta taqsimlash asosida tuzilma faoliyatini masofadan turib muvofiqlashtirish va muvozanatlash imkoniyatini ta'minlab beradi.

Maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarini alohida subyektlar xodimlarining o'zaro munosabati va turli xizmatlar ko'rsatishning umumiy hajmini shakllantirish orqali uning bog'lanishini ta'minlaydigan klaster elementlarini ifodalaydi.


1) Butun dunyoda va maishiy xizmat ko'rsatish bozorida globalashuv jarayonlarining kuchayib borishi bo'yicha sodir bo'layotgan tig'iz geosiyosiy holatdan kelib chiqqan holda, mazkur muammoni tadqiq etishni milliy va xalqaro darajadagi klasterlashning mavjud tashqi omillarini analiz qilishni maqsadga muvofiq deb topildi. Ular quyidagilardan iborat; 1) **geosiyosiy omil** – quyidagi bir qator muammolarni namoyon etmoqda: ba'zi davlatlar o'rtasida siyosiy beqarorlikning kuchayishi; dunyo geosiyosiy xaritasining murakkablashishi; bir qator G'arb davlatlari tomonidan sanksiyalar bosimi; siyosiy integrasiyaning zaiflashishi; va boshqalar;

¹⁰ Tadqiqotchining tadqiqot natijalaridan kelib chiqib ishlab chiqilgan.

2) **tashqi iqtisodiy omil** – jahon iqtisodiy inqirozning mavjud bo‘lishi, neft mahsulotlarining narxining o‘zgarishi, valyutalarning beqaror kursi, moddiy, kadrlar, infratuzilma, tashqi savdoning ko‘payishi bilan bog‘liq munosabatlardagi muammolar;

3) **infratuzilma omili** – maishiy xizmat ko‘rsatish sohasidagi xizmat ko‘rsatish, transport, innovatsiya, muhandislik va boshqa infratuzilmaning rivojlanishiga tegishli muammolarning uchrab turishi va boshqa xizmatlarda integratsion jarayon ko‘rsatkichlarining pasayishi va h.k.

Tadqiqotlarimiz natijasida hududda klasterlash amaliyotini joriy qilish orqali daromadni yanada ko‘tarish, rentabillikni oshirish imkoniyati mavjudligi aniqlandi. Hududda infratuzilmani shakillantirish, tadbirkorlarni jalb qilish, gastronomik turizmni rivojlantirishga ehtiyoj juda katta. Klaster tashkil qilish orqali har bir soha mutaxassislari tajribalaridan to‘g‘ri foydalanish va foydani maksimallashtirish imkoniga ega bo‘linadi. Klaster joriy qilish rejalashtirish, ishlab chiqish, innovatsiyalar, tadqiqot, klaster marketingi, aloqa, monitoring, treninglar, vakillik, sifat standartlari kabi klaster vazifalarini bajaradi (4-rasm).



4-rasm. Maishiy xizmat ko‘rsatish sohasida hududiy klaster modelini tuzilishi¹¹

Maishiy xizmat ko‘rsatish sohasida hududiy klaster sharoitida hududlar va tizimni ratsional ravishda boshqarish va tashkil etish uchun mahalliy va gorizontaal kooperativ sheriklik yetarli emas degan xulosaga kelish mumkin. Ushbu klaster sanoat sektorining monopoliyadan holi va qo‘shma korxonalarini, maxsus va davlat tomonidan subsidiyalar ajratiladigan tarmoqlarni viloyat maishiy servis marmazini, moliyaviy tashkilotlarni, ta‘minotchilarni va shart-sharoitlar yaratib beruvchi xizmat ko‘rsatish yo‘nalishi tashkilotlarini (ta‘lim, kadrlar tayyorlash,

¹¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

tadqiqot), tadbirkorlik birlashmalarini va uning innovatsion hamkorlik tizimini (palatalar, klublar) birlashtiradi.

Hududlarda maishiy xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish aholi daromadlarini oshirish, mamlakatda kambag'allikni qisqartirishning masalasini hal qilishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Maishiy xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishni moliyaviy jihatdan qulayligi ko'p xarajat talab qilinmaydigan faoliyatni tashkil etish va mavjud ishsizlar toifasi uchun yangi ish o'rinlarini yaratish imkonini beradi.

Tadqiqot davomida viloyat maishiy xizmat ko'rsatish sohasida yaratilgan xizmat ko'rsatish hajmini oshirishning ekonometrik tahlili iqtisodiy-matematik usullar yordamida sohada iqtisodiy jarayonlar va real hodisalarning o'zaro bog'liqlik kuchini o'rganish, va statistik tajribalar orqali kuzatish imkoniyatini yaratadi. Bunday holat Samarqand viloyatida maishiy xizmatlar sohasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar o'rganish zaruriyatini taqazo etadi (3-jadval).

3-jadval

Ko'p omilli ekonometrik modelning parametrlarini aniqlash natijalari¹²

| | Standartlashtirilmagan koefitsiyentlar | | Standartlash-tirilgan koefitsiyentlar | t-statistika | Ehtimol- ligi |
|------------|--|------------------|---------------------------------------|--------------|------------------|
| | Koefitsiyent | Standart xatolik | Beta | | |
| a_0 | 4041,25 | 1,5262 | | 76,021 | 0,0000002 |
| $a_3(X_1)$ | 0,040 | 0,0192 | 0,331 | 1,148 | 0,3213394 |
| $a_4(X_2)$ | 0,024 | 0,0091 | 0,172 | 0,304 | 0,7746537 |
| $a_5(X_3)$ | 0,046 | 0,0359 | -0,219 | -0,461 | 0,6176531 |
| $a_7(X_4)$ | 0,067 | 0,0151 | 0,223 | 1,596 | 0,635319 |
| $a_8(X_5)$ | 0,531 | 0,0008 | -1,782 | -3,523 | 0,0087123 |

Bunda: natijaviy omil (bog'liq o'zgaruvchi): Y ; usul: eng kichik kvadratlar; tanlanma: 2011-2023 y.y.; kuzatuvlar soni: 12; ta'sir etuvchi omillar: 5.

Samarqand viloyatida maishiy xizmat ko'rsatish sohasida yaratilgan yalpi mahsulot hajmini oshirishning korrelyatsion-regression tahlil usullari yordamida tanlab olingan omillar orasida bog'liqlik mavud degan xulosaga kelindi. Bunda model tuzilishining eng muhim bosqichi natijaviy, bashorat qilingan ko'rsatkichning tanlab olingan omillarga bog'liqligini tavsiflovchi ekonometrik ifodani tanlash lozim bo'ladi.

Modelning statistik tanlanmasiga Samarqand viloyatining 2011-2023 yillardagi maishiy xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari kiritildi. Eng kichik kvadratlar usuli orqali hisoblash Eviews dasturida bajarilib, 4-jadvalda keltirilgan natijalar olindi.

¹² Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan.

Ekonometrik modelning ahamiyatlilik darajasini tekshirish mezonlari¹³

| Ko'p omilli korrelyatsiya koeffitsienti R | Ko'p omilli determinatsiya koeffitsienti R^2 | Korrektlash-tirilgan R^2 | Baholashning standart xatosi | F-haqiqiy | Darbin-Uotson statistikasi |
|---|--|----------------------------|------------------------------|-----------|----------------------------|
| 0,99431 | 0,993759 | 0,988149 | 0,341 | 281,14 | 2,16 |

Maishiy xizmat ko'rsatish sohasida yaratilgan yalpi mahsulot hamda unga ta'sir etuvchi tanlab olingan omillar asosida eng kichik kvadratlar usuli qo'llash orqali modelni qurish va tahlillarini amalga oshiramiz. Regression ekonometrik modelda natijaviy omil bilan ta'sir etuvchi etib tanlangan omillar o'rtasidagi bog'lanishi zichligini aniqlashda (5) umumiy model hamda 4-jadval keltirilgan koeffitsiyentlar asosida ko'p omilli ekonometrik modelning ko'rinishini quyidagicha yozamiz:

$$Y=4041,25+0,040*x_1+0,024*x_2+0,046*x_3+0,67*x_4+0,531*x_5 \quad (5)$$

4-jadval ma'lumotida keltirilgan R^2 determinatsiya koeffitsiyenti 0,988149 ga teng bo'lib, ushbu ko'rsatkich natijaviy omil bilan tanlab olingan ta'sir etuvchi omillar o'rtasida bog'lanish yetarlicha zich ekanligini ko'rsatadi, ya'ni maishiy xizmat ko'rsatish sohasida yaratilgan yalpi mahsulot hajmi (Y) 100,0% ko'p omilli ekonometrik model uchun tanlab olingan ta'sir etuvchi omillarga bog'liqdir.

Modellarni turli miqdordagi omillar bilan taqqoslash imkoniyatining bo'lishi va ushbu miqdordagi omillar R^2 statistikaga ta'sir etmasligi uchun odatda korrektlashgan determinatsiya koeffitsiyentidan foydalaniladi. 4-jadvalda olingan natijada korrektlashgan determinatsiya koeffitsiyenti 0,988149 ga teng bo'lib, R^2 determinatsiya koeffitsiyentiga qariyb tengligi ekonometrik modelga kiritilgan omillar soni o'zgarishi atrofida qiymatlar qabul qilishi kelib chiqadi.

